

RAQAMLASHAYOTGAN JAMIYATDA FUQAROLAR VA YOSH AVLOD FAOLLIIGI: IMKONIYATLAR VA TO‘SIQLAR

Navro‘zov Oybek

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, s.f.b.f.d. (PhD)

Karimova Zulfiya, talaba

islomkarimov0798@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanayotgan dunyoda raqamlashayotgan jamiyatdagi imkoniyatlar va texnologiyalardan foydalanish samaradorligi va kamchiliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: raqamli mahalla, raqamli avlod qizlari, raqamli ta’lim, my.gov.uz, kiberbulling, hemis.

CIVIC AND YOUTH ENGAGEMENT IN A DIGITALIZING SOCIETY: OPPORTUNITIES AND BARRIERS

Annotation: This article discusses the opportunities, effectiveness of technology utilization, and shortcomings within a digitizing society in the developing world.

Key words: digital mahalla, digital generation girls, digital education, my.gov.uz, cyberbullying, hemis.

АКТИВНОСТЬ ГРАЖДАН И МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ЦИФРОВИЗИРУЮЩЕМСЯ ОБЩЕСТВЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И БАРЬЕРЫ

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности, эффективность использования технологий и недостатки цифровизирующегося общества в развивающемся мире.

Ключевые слова: цифровая махалля, девушки цифрового поколения, цифровое образование, my.gov.uz, кибербуллинг, hemis.

So‘nggi yillarda jamiyatni raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatlaridan foydalanish, kredit olish, tashkilotlarga onlayn murojaat qilish bilan bir qatorda internet savdo bozorlari ham tobora ommalashib bormoqda. Bu jarayonlar ortiqcha vaqt sarflamaslik, ish unumdorligini oshirish hamda qog‘ozbozlikning oldini olish imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda ushbu xizmatlarni amalga oshirish uchun ko‘plab platformalar yaratilgan bo‘lib, ulardan eng ommalashgani - **my.gov.uz** hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va tadbirkorlari uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bo‘lib, 2013-yilda tashkil etilgan. portal Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ishga tushirilgan va uning maqsadi davlat xizmatlarini onlayn tarzda qulay va shaffof ko‘rinishda taqdim etishdir. 2017-yil 18- iyul sanasida YIDXP ning yangi 2-talqini **my2.gov.uz** veb manzilida ishga tushdi hamda bugungi kunga qadar foydalanib kelinmoqda. YIDXPning 2-talqini jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazasi bn integratsiya qilingan hamda portalga kirish foydalanuvchilar yagona indefikatsiya

qilish tizimi **OneID** orqali amalga oshiriladi. Yagona portalning 2-talqinida portal foydalanuvchilari hisoblangan ish haqi va pensiyalar tog'risidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda olishlari, to'lanmagan soliqlar kommunal xizmatlar, ijro hujjatlari va yo'l harakatiga oid jarimalarni tekshirish mumkin. Bundan tashqari biz bu platformadan ushbu sohalarida ham foydalana olamiz: sog'liqni saqlash, ta'lim, adliya, subsidiya ko'chmas mulk, iqtisodiyot va biznes, yoshlar, soliq, madaniyat, turizm va sport, bojxona, UJKX, litsenziya, bandlik va mehnat, ijtimoiy himoya, ekologiya, geologiya davlat aktivlari va boshqala. 2023- yil 24-oktabr kuni **"ICT summit 2023"** tadbirlari doirasida YIDXPning yangi 3-talqini my3.gov.uz web manzilda taqdim etildi. YIDXPning 3-talqini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan dizaynga ega bo'lib, MyID yuzni tanish orqali identifikatsiyadan o'tish **"Muxlisa"** ovozli yordamchisi elektron xizmatlarni baholash kabi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi 2025-yil 1- fevral holatiga **YIDXP** foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshdi . foydalanuvchilarning 53,45 foizi erkaklar, 46,55 foizini ayollar tashkil etadi.

2025-yil 1-fevral xolatiga ko'ra YIDXPda 720 ta elektron davlat xizmati joriy etilgan bo'lib, mazkur 18 ta sohada fuqarolik, ta'lim, oila va bolalar, yoshlar, ijtimoiy himoya, UJKX, soliqlar, bojxona, transport, ko'chmas mulk, malumotnomalar va boshqalar bo'yicha taqsimlangan. **Raqamli mahalla** tizimiga keladigan bo'lsak, muhtaram prezidentimizning **"O'zbekiston mahallalari uyushmasini faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi qarori[4] bilan yaqinda mahalla faoliyatiga bog'liq yagona tizim – **"raqamli mahalla"** platformasi joriy etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-sentabrdagi 586-son qarori **"Mahalla fuqarolar yig'ini yagona reysterini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida"**gi nizom[5] tasdiqlangan. Mahalla tizimini raqamlashtirishning ko'plab foydalari mavjud. Birinchi o'rinda shuni aytib o'tish joizki mahalla darajasidagi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini tezroq aniqlab, ma'lumotlarni murojaatlarni raqamlashtirish bu ma'lumotlarning aniqligi tezligi va oshkoraligi uchun muhim ortiqcha qog'ozbozlik kamayadi, hamma ishlar ochiq shaffof tarzda bo'ladi. Davlat va jamiyat rivojlanishining qotili bo'lgan korrupsiya ham kamayish ehtimoli mavjud. Bundan tashqari mahalla darajasidagi xizmatlarni yaxshilash fuqarolar bilan aloqani kuchaytirish va ma'lumotlarni kuchatirish va ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali boshqaruv sifatini oshirishga qaratilgan tizim agar yaxshi ishlasa fuqarolar uchun ham mahalla xizmatlari uchun ham ko'p qulayliklarni yaratadi. Raqamlashtirish jarayoni ta'lim sohasida ko'p imkoniyalar yaratmoqda. Raqamli ta'lim bu an'anaviy darslarni kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska hamda onlayn dasturlar yordamida o'tkazish shakli. O'quvchilar darsni **"ZOOM"**, **"GOOGLE MEET"**, **"MICROSOFT TEAMS"**, **"HEMIS UZ"** orqali o'rganadi. Ayniqsa 2019-yil Covid19 davrida bu tizimdan keng foylanildi. Oliy ta'lim muassasalarida online baholash tizimi **hemis.uz**dan foylanilmoqda. Bu tizim o'qituvchilar va talabalarga juda qulaylik yaratdi. Undan tashqari **edu.portal.uz**, **edu.uz** o'quv materialari va test

bazalari sifatida tashkil etildi. **ziyo.net** - o'quvchilar va o'qituvchilar uchun elektron resurslar tarmog'i bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli ta'lim bu kelajak ta'limi bo'lib o'quv jarayonini qulay, tez va zamonaviy qiladi. O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan yoshlarni raqamli zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun turli loyihalar stipendiyalar joriy qilindi. **“Raqamli avlod qizlari”** nomli dastur ishga tushirildi va bundan maqsad ayollarni startap loyihalarda ishtirok etishga undash rivojlanib borayotgan raqamli kasblarga tayyorlash gender tengligini ta'minlash yani ayollarni ham erkak kabi IT sohasida teng imkon berishidir. Ushbu loyihada hamkorlik asosida yo'lga qo'yilgan bular IT park Uzbekistan unda va Digital generation Uzbekistan loyihasi darajasida yo'lga qo'yildi o'z samarasini berib kelmoqda.

Tarixchi Melvin Kranzbergning takidlashicha “Texnologiya na yaxshi na u yomon u neytral ham emas”, bu fikr shuni anglatadiki texnologiyalar o'ziga xos ijtimoiy kontekstda ta'sir ko'rsatadi va ko'pincha kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda axborot tezligi cheksiz hisoblanadi. Biz avvalambor axborotlashgan jamiyat kabi tushinchaga e'tibor qaratsak, axborotlashgan jamiyatga John Featherning **“The information society, a study of continuity and change”** kitobida ta'rif shunday deb beriladi “axborotlashgan jamiyat bu jamiyatda axborot yaratish, tarqatish va qo'llash iqtisodiy siyosiy va madaniy faoliyatining markaziga aylandi hamda jamiyatning asosan agrar yoki sanoat asosli bo'lgan shaklidan axborot va bilimga asoslangan shaklga o'tishi yuz beradi. Raqamli jamiyat inson hayotining barcha jabhasida axloq va qadriyatlar tizimida tub o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetning keng tarqalishi tufayli insonlar o'rtasida muloqot ijtimoiy aloqalar va axloqiy meyorlar qayta shakllanmoqda va hozirgi raqamli jamiyatda axloqiy masalalar ko'payishi yangi axloqiy tamoyillar va yondashuvlar ishlab chiqish talab qilinmoqda jumladan kiberbulling, firibgarlik, feyk axborotlar tarqalishi kabi muammolar axloqiy va huquqiy jihatdandan yangi yondashuv talab qilinmoqda. Raqamli jamiyatda shaxsiy malumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi masalalari ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolmoqda. Aksariyat foydalanuvchilar shaxsiy malumotlarni, parollar va bank ma'lumotlarini xavfsiz saqlash borasida yetarli bilimga ega emas. Bundan tashqari kiberhujumlar shaxsiy ma'lumotlarning yoyilishi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq boshqa muammolar shaxslar va tashkilotlar o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Raqamli platformalardan odamlar o'rtasidagi muloqotlar ko'p hollarda agressiya nafarat va haqoratlarga aylanadi. Bu ayniqsa yoshlar o'rtasida kiberbulling ko'payishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqdan intensive foydalanish hayotdan qoniqishning pasayishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalardan tezkor muloqotni imkonini yaratadi, bu esa foydalanuvchilarning his tuyg'ularini tezda bildirishga olib keladi. Ekran qarshisida uzoq vaqt o'tkazish esa ko'proq xulq atvor va ijtimoiy hissiy muammolarga sabab bo'ladi. Elektron gadjetlar va platformalarga bog'lanib qolish fikrlash va jismoniy sog'liqqa zarar beradi. Ko'rish tizmi pasayadi, gadjetlarga qaramlik esa fikrlashni susaytiradi. Raqamli jamiyatda yolg'on ma'lumotlar feyk

newsning tarqalishi noto‘g‘ri malumotlar jamiyatda xato tushunchalar nafrat, ziddiyat va ijtimoiy beqarorlikga olib kelishi mumkin. Bu kabi informatsiyalarning keng tarqalishi esa fuqorolarning ishonchini pasaytirib axborot manbalarning ishonchliligiga shubha ostiga qo‘yadi. Ushbu holatlarni kamaytirish uchun bir qancha chora-tadbirlar mavjud. Maktab va oliy ta‘lim muassasalarida axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil qilinishi yoshlar kiberbulling va uning salbiy oqibatlari haqida to‘g‘ri malumotga ega bo‘lish kerak. Bu ularning onlayn muhitda muloqot qilish madaniyatni yaxshilashga yordam beradi. Kiberbulling bilan jabrlangnlariga yordam ko‘rsatish uchun psixologik va huquqiy yordam markazlari tashkil etilishi kerak. Bunday yordam foydalanuvchilarning psixologik holatini yaxshilashga va o‘zlarini tiklashga yordam beradi. Xabarimiz bor kiberbullingga uchragan ba‘zilar suidsid holatigacha boradi. Ushbu holatdan chiqishi uchun esa bu yordam beradi. Feyk xabarlarini tarqalishini oldini olish uchun axborot savodxonligi zarur. Ommaviy axborot vositalarni va onlayn platformaning ishonchliligi va mas‘uliyatini oshirish zarur. Buning uchun axborotni tekshirish va ma‘lumotlarni validatsiya qilish bo‘yicha qat’iy qoidalar va standartlar joriy qilinishi lozim xabar tarqatuvchi manbalarning ishonchliligini tasdiqlovchi mexanizmlar ishlab chiqilishi va uni amaliyotga joriy qilinishi kerak.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli jamiyatning har bir tarafini yaxshilab o‘rganib chiqish zarur. Axloqiy qadriyatning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta‘minlash raqamli ongni yuksaltirish va axborot xavfsizligini kamaytirish jamiyatda tichlik va hamjihatlikni mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, J., Rainie, L. The Future of Digital Life and Well-Being // Pew Research Center. – 2018. – Retrieved from Pew Research Center.
2. Arastu. Poetika. Axloqiy kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 352b
3. Kranzberg, M. Technology and History: Kranzberg’s Laws // Technology and Culture. – 1986.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.12.2023 yildagi PQ-402-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.09.2025 yildagi 586-son.

Internet manbalari:

1. www.lex.uz
2. www.uza.uz
3. www.wikipedia.org/
4. www.api.infocom.uz